

ELEKTRON IMZO HAQIDAGI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNI

Akram Suyarov

SamISI Iqtisodiyotda axborot-kommunikatsion texnologiyalar

va tizimlar fani o'qituvchisi

Rustamjon Nasirddinov

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola “ Elektron imzo haqidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni” haqida so'z yuritilgan hamda muallif tomonida fikr mulohazalar keltirilgan

Kalit so'zlar: electron imzo, hujjat, sertifikat, yuridik shaxs.

Annotation: This article discusses the Law of the Republic of Uzbekistan “On Electronic Signature” and presents the author's opinions and considerations.

Keywords: electronic signature, document, certificate, legal entity.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar hayotimizning deyarli barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Ayniqsa, elektron hujjat aylanishi va raqamli identifikatsiya tizimlarining rivojlanishi bilan bir qatorda, hujjatlarning haqiqiyligini tasdiqlash zarurati ham ortib bormoqda. Shu munosabat bilan, elektron raqamli imzo tushunchasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Elektron raqamli imzo — bu elektron hujjatga bog'langan, hujjat muallifini aniqlash va uning o'zgarmaganligini tasdiqlovchi raqamli kod bo'lib, u huquqiy kuchga ega hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, davlat xizmatlarini elektron shaklga o'tkazish va fuqarolar hamda yuridik shaxslar o'rtasidagi axborot almashinuvini soddalashtirish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu jumladan 2005-yil 29-aprelda qabul qilingan “Elektron raqamli imzo to'g'risida”gi Qonun ushbu yo'nalishda muhim huquqiy asoslardan biri hisoblanadi. Mazkur qonun

orqali elektron raqamli imzodan foydalanish tartibi, uning huquqiy maqomi va xavfsizlik choralari belgilab berilgan.

Elektron raqamli imzo — elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o‘zgarishlar natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik mavjud emasligini aniqlash va elektron raqamli imzo kalitining egasini identifikatsiya qilish imkonini beradigan imzo. Elektron raqamli imzoning yopiq kaliti — elektron raqamli imzo vositalaridan foydalangan holda hosil qilingan, faqat imzo qo‘yuvchi shaxsning o‘ziga ma’lum bo‘lgan va elektron hujjatda elektron raqamli imzoni yaratish uchun mo‘ljallangan belgilar ketma-ketligi, elektron raqamli imzo kalitining sertifikatini — elektron raqamli imzoning ochiq kaliti.

Elektron raqamli imzoning yopiq kalitiga muvofiqligini tasdiqlaydigan elektron hujjat, elektron raqamli imzo kalitining egasi — o‘ziga elektron raqamli imzo kalitining sertifikatini berilgan jismoniy yoki yuridik shaxs. Elektron raqamli imzoning ochiq kaliti — elektron raqamli imzo vositalaridan foydalangan holda hosil qilingan, elektron raqamli imzoning yopiq kalitiga muvofiq bo‘lgan, axborot tizimining har qanday foydalanuvchisi uchun ochiq bo‘lgan va elektron hujjatdagi elektron raqamli imzoning haqiqiylikini tasdiqlash uchun mo‘ljallangan belgilar ketma-ketligidir. Elektron raqamli imzoning haqiqiylikini tasdiqlash — elektron raqamli imzoning elektron raqamli imzo kalitining egasiga tegishlilikini va elektron hujjatdagi axborotda xatolik mavjud emasligini tekshirishning ijobiy natijasi. Elektron hujjat — elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo‘lgan axborot.

Bir vaqtning o‘zida quyidagi shartlarga rioya etilgan taqdirda, elektron hujjatdagi elektron raqamli imzo qog‘oz hujjatga qo‘lda shaxsan qo‘yilgan imzo bilan bir xil ahamiyatga ega bo‘ladi, agar:

elektron raqamli imzoning haqiqiylikini tasdiqlangan bo‘lsa, elektron raqamli imzo kalitining sertifikatini elektron raqamli imzoning haqiqiylikini tasdiqlash paytida yoxud

imzolash paytini belgilovchi dalillar mavjud bo'lganda elektron hujjatni imzolash paytida amalda bo'lsa, elektron raqamli imzodan elektron raqamli imzo kalitining sertifikatida ko'rsatilgan maqsadlarda foydalanilayotgan bo'lsa.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan shartlarga bir vaqtning o'zida rioya etilgan taqdirda, yuridik shaxsning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan elektron hujjat yuridik shaxsning muhri bilan tasdiqlangan qog'oz hujjatga tenglashtiriladi

Elektron raqamli imzodan foydalanish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Elektron raqamli imzodan foydalanish uchun huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy, texnik vaboshqa shart-sharoitlar yaratish.

2. Elektron raqamli imzoning mavjud bo'lishi talab qilinadigan elektron xizmatlar barcha turlarining ochiqligini va sifatini ta'minlashdir.

3. Majburiy texnik talablar, normalar va qoidalarga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish.

4. Elektron raqamli imzodan foydalanish sohasidagi ilmiy-texnik tadqiqotlarni rag'batlantirish.

5. Kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, investitsiyalarni jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish.

6. Ilg'or innovatsion, axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishiga ko'maklashish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Vakolatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

Elektron raqamli imzodan foydalanish sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi, elektron raqamli imzodan foydalanish sohasidagi davlat dasturlarini tasdiqlaydi va ularning amalga oshirilishini ta'minlaydi, elektron raqamli

imzodan foydalanish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni o'z vakolatlari doirasida qabul qiladi.

Elektron raqamli imzolar kalitlarini ro'yxatga olish markazlarining faoliyati.

Qonunchilikda belgilangan tartibda akkreditatsiya qilingan va O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan, elektron raqamli imzodan foydalanish sohasidagi faoliyatni amalga oshiradigan yuridik shaxs elektron raqamli imzolar kalitlarini ro'yxatga olish markazidir.

Ro'yxatga olish markazi hamda jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasidagi elektron raqamli imzodan foydalanish sohasidagi munosabatlar shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Ro'yxatga olish markazlari tomonidan berilgan elektron raqamli imzo kalitiga ega bo'lgan shaxslar elektron raqamli imzoning mavjud bo'lishi talab qilinadigan davlat xizmatlarining barcha turlaridan erkin foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Elektron raqamli imzoni yaratish va tekshirish uchun axborot xavfsizligi talablariga muvofiq sertifikatlashtirilgan apparat, dasturiy-apparat va dasturiy ta'minotga, elektron raqamli imzolar kalitlarining sertifikatlarini tayyorlash, hisobga olish va saqlash uchun axborot xavfsizligi talablariga muvofiq sertifikatlashtirilgan apparat, dasturiy-apparat va dasturiy ta'minotga, tarqatilishi cheklangan axborotning saqlanishini ta'minlaydigan shart-sharoitlarga, axborot xavfsizligi, texnika xavfsizligi va yong'in xavfsizligi talablariga javob beradigan zarur xonalarga ega bo'lishi kerak.

Ro'yxatga olish markazlarining axborot tizimlari va resurslari axborot tizimlaridagi hamda resurslaridagi ma'lumotlar qonunga xilof ravishda tarqatilishining, o'g'irlanishining, yo'qolishining, yaxlitligi buzilishining, bloklanishining hamda qalbakilashtirilishining oldini olish maqsadida ruxsatsiz foydalanishdan himoya qilingan bo'lishi kerak.

Ro'yxatga olish markazini ustav fondida chet davlat rezidentining ulushi o'ttiz va undan ortiq foiz bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan tashkil etishga yo'l qo'yilmaydi.

XULOSA:

Xulosa qilib aytganda, elektron imzo bugungi raqamli davrda hujjat aylanishi va axborot xavfsizligini ta'minlashda muhim vositalardan biridir. U an'anaviy qog'oz hujjatlar o'rnini bosib, hujjatlarni tez, ishonchli va xavfsiz tarzda imzolash imkonini beradi. Elektron imzoning huquqiy kuchga ega ekanligi esa uni rasmiy va yuridik jarayonlarda keng qo'llash imkonini beradi. Shu bilan birga, ERI texnologiyasining to'g'ri va ehtiyotkorlik bilan qo'llanishi har qanday sohada ish samaradorligini oshiradi va raqamli ishonch muhitini shakllantiradi. Kelajakda bu texnologiyaning yanada takomillashuvi bilan, ko'plab byurokratik to'siqlar bartaraf etilishi va jamiyatning raqamli rivojlanishiga zamin yaratilishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Razzoqov A. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Oliy ta'lim muassasalarining talabalari uchun darslik / A.A.Razzoqov, Sh.H.Tashmatov, N.T.O'rmonov. – T.: Iqtisod-moliya, 2007. – 320 b.
2. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – T.: «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2014. – 480 b. 11. Shodmonov Sh.Sh., Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2021. – 784.b
3. «Avesto» – T. Sharq matbaa nashriyot kompaniyasi. 2001. 13. Abu Ali ibn Sino. «Tibbiyot dostoni». T.1990.
4. Alisher Navoiy. «Mahbub ul qulub». T.1993.
5. Amir Temur. «Temur tuzuklari». T.1992.
6. Yusuf Xos Hojib. «Qutadg'u bilig». T., 1990.
7. Kaykovus. «Qobusnoma». O'qituvchi nashriyoti. Matbaa ijodiy uyi. T.: 2006y, 208b